

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq x ‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat k ‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 496 sahifa.*

*E'lom qilishga 2024-yil 30-iyunda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridtinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o’tkazilgan.

**Muassis:** “Ma’rifat-print-media” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR  
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK  
departamenti.



# MUNDARIJA

Oliy ta'lif islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari .....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda .....	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish .....	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lif tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati .....	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtaidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatillovich	
Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана .....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari .....	49
Toiyirov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazltdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lif muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar .....	86
Jiyanova Nargiza Esanboevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes .....	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy .....	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	125
Abirkulova Sohibjamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan).....	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraufdanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli .....	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agrokластерларда асосија виситаларни модернизациялаш ва та'мirlash xarajatlarini tahlil qilish .....	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks .....	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish .....	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar .....	192
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region .....	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish .....	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliv ta'lif muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari.....	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish .....	225
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari .....	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlari yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari .....	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English .....	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati .....	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi .....	256
G. Sh. Qo'idosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации .....	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari ..	266
G. I. Abdulxamidova	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива .....	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise .....	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан .....	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	
O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari.....	289
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich	
Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi .....	296
Dilnoza Meyliyeva	
Cross Cultural Preoblems in International Business Negotiations .....	301
Xoldarova Fariza Tuxtabayevna	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash .....	304
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari .....	310
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish .....	315
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida .....	320
O'rinnov Dilshodjon Axmadjonovich	
Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi .....	324
Xolbekova Feruza Rasulovna	



Iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslari.....	329
Hasanova Nigora Hasan qizi	
Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан.....	334
Юлдашев Жамшид Абрарович	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish .....	340
S. A. Karabayev	
Axborot telekommunikatsiya tarmog'i korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligi .....	334
Temirov Anvarxon Abdulazizxonovich	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi .....	347
G.SH.Qo'idosheva <sup>1</sup> , A.J.Toshboyev <sup>2</sup>	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash .....	351
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna .....	357
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish .....	362
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar - texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida .....	367
O'rinnov Dilshodjon Axmadjonovich	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar .....	371
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili.....	375
Bahriiddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
O'zbekistonda investitsion faoliyat, uni moliyalashtirishning zamonaviy ko'lamlari.....	380
va o'ziga xos xususiyatlari	
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhriddin Bahriiddinovich	
Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri (Yevropa Tarraqiyot va Tiklanish banki misolida).....	384
Muxtorov Jahongir Muxtor o'g'li	
Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq daromadlar hisobini tashkil etish .....	390
Meliboyev Akmal G'aybullayevich	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy ishlab chiqarish fondlarining t uzilishi hamda hajmi .....	394
Muxtaras Karimova Isroiljon qizi	
Ayollar tadbirkorligi nazariyasining takomillashuvi xususida.....	398
Sharofiddinova Gulnoza Ilhomjonovna	
O'zbekistonda soliq ma'murchiligidagi joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari .....	403
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Soliq majburiyatlari ijrosini takomillashtirish yo'llari .....	408
Mirzaaliyeva Gulchehra Abduvali qizi	
Cравнительное исследование финансовой отчетности, подготовленной в соответствии с МСФО и НСБУ.....	413
Эргашева Шахло Тургунновна	



Innovatsion bank mahsulotlarini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va raqamli transformatsiyaning ro'li.....	420
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Mintaqa mehnat bozori ishchi kuchiga talab va taklifni boshqarish vositasi sifatida .....	428
Umarov Oqil Omiljonovich, Abdullayev Umidjon G'afurovich	
Development of a Methodology for Assessing the Brand Equity of Higher Education Institutions .....	435
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining o'rni.....	442
Avezov Ibrohim Ilhomovich	
Optimizing Digital Pedagogy through Database Applications and Data Mining for a Sustainable Digital Economy .....	448
Dilfuza Kuzikulova	
Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish .....	454
Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi	
Talaba va o'quvchilarning kamolotida ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati .....	458
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
To'qimachilik korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish .....	461
Ikramov Maqsad Muratovich	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish .....	467
Toyirov Yunus Alamovich	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili .....	474
Turgunov Odilbek Maripovich	
Analysis of the investments in clean energy projects in the developing countries.....	478
Fayziyev Samandar Sobir ogl'i	
Chakana savdo korxonalarida innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari .....	483
Kodirova Zulkumor Namazovna, Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining qo'llanilishida xorij tajribasining o'rni .....	489
Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi	



# TO'QIMACHILIK KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

**Ikramov Maqsad Muratovich**

mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada to'qimachilik korxonalarining faoliyatini samarali rivojlantirishda innovatsiyalardan foydalananish, uni baholash uslubiyotini takomillashtirish o'rganilgan. Tahliliy materiallar Toshkent shahri va viloyati, Farg'onaviyotida faoliyat ko'ssatayotgan to'qimachilik korxonalarini misolida olingan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, raqamlashtirish, innovatsiya, samaradorlik, innovatsiya salohiyati, marketing tadqiqotlari.

**Аннотация:** В данной статье исследуется использование инноваций в эффективном развитии деятельности текстильных предприятий, а также совершенствование методики ее оценки. Аналитические материалы взяты на примере текстильных предприятий, действующих в городе Ташкенте и области, Ферганской области.

**Ключевые слова:** Глобализация, цифровая инновация, эффективность, инновационный потенциал, маркетинговые исследования.

**Abstract:** In this article, the use of innovations in the effective development of the activity of textile enterprises, and the improvement of its assessment methodology are studied. Analytical materials were taken on the example of textile enterprises operating in Tashkent city and region, Fergana region.

**Key words:** Globalization, digital innovation, efficiency, innovation potential, marketing research.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan yangi texnologiyalarning rivojlanishi hamda tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi bozorlaridagi raqobatning kuchayishi korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tizimini faollashtirish va uni yanada samarali tashkil etishga qaratilmoqda[1]. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotini tarkibani yangilash, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan ustuvor sohalarni rivojlanterish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, aholining tez o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, so'nggi kashfiyot ishlanmalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlarining hayotiylik davrini barqaror o'sib borishini ta'minlovchi zamonaliv usullarni keng ko'lamda foydalanishni taqozo etmoqda.

To'qimachilik sanoati korxonalarining rivojlanishini sekinlashtirayotgan omillarga mehnat unumdarligining pastligi, mavjud texnika va texnologiyalardan unumli foydalanishning yo'nga qo'yilmaganligi, malakali ishchixodimlarning yetishmasligi va mavjudlarining esa malaka darajasining pastligi kabilarni kiritishimiz mumkin. Bular esa mavjud resurslardan samaradorlik darajasi baland bo'lgan inovatsion texnologiyalardan foydalanishni joriy etishni taqozo etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasidagi muammolarni yechishni topishda O'zbekistonning turli xil olimlarining ishlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. To'qimachilik sanoatining-menejmenti sohasida Isaev P.A [8] Akramov N.Sh. [9] Davlatov B.A. [10], raqobatdoshligini boshqarishda brending strategiyasidan foydalanish Oqboyev A.R. ilmiy ishlarida [11] to'qimachilik klasterlarini shakillantirishda Xakimov Z.A. [12], tarmoqni eksport salohiyati masalalari Abreyza D.A. [13] va Sadriddinova N.X. [14] dissertatsiyalarida, innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirishda Yusupov U.Sh. [15], Giyasova N.B. [16] va Jo'rabekov M.A. [17] tadqiqotlari bag'ishlangan. Ammo ularning birortasida to'qimachilik korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash uslubiyotini o'rganilmagan.



Shu sababdan ushbu maqolamizda to'qimachilik korxonalarimizda innovatsion faoliyatni amalga oshirish-dagi muammolar, ularning yechimlari hamda innovatsiya faoliyatini baholash uslubiyotini taklif etishga xarakat qilganmiz. Tarmoqning kelajagini innovatsiya faoliyatini jadallashtirmasdan iloji yo'qligini jahon va mamlakatimiz tajribasi tasdiqlamoqda. To'qimachilik korxonalaridagi barcha innovatsiya resurslarini birlashtirish va ulardagi korxona faoliyatida qanday va qanchalik samaradorlik bilan foydalanilayotganligi nazorat qilib turish maqsadga muvofiqdır. Toshkent shahri, Toshkent va Farg'ona viloyatida joylashgan to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarni amaliyotida o'tkazilgan tadqiqotlarda ushbu muammoni hal etilishi dolzarbligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. To'qimachilik korxonalarining innovatsion faoliyati tendensiyalarini o'rganishda umumiyligidan individuallikka va aksincha tartibda dedukcion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatiidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuv va raqamlashtirish davrida tabiiy va sifatli to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borishi bir tomonidan insonlarning iste'mol madaniyati oshib borayotganligi, ikkinchi tomonidan esa chegaralangan resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Bunday holatda ishlab chiqarishni ustuvor darajada innovatsion texnologiyalarga ko'ra rivojlantirish va ekologik xavfsizlik darajasini oshirishga nafaqat rivojlangan davlatlar, balki boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar ham alohida e'tibor qaratishga majbur bo'lishmoqda[1]. Bugun Respublikamizda to'qimachilik sanoati tayyor mahsulot yetishtirib chiqaradigan kamdan-kam sanoat tarmoqlaridan hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida "To'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga ko'paytirish" vazifasi qo'yilgan [2].

Sohani rivojlantirish borasida yurtimiz qator islohotlar olib borilmoqda. Shu maqsadda mamlakatimiz Prezidenti va hukumati tomonidan ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi PF-165-son "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash tog'risida"[4], 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[5], 2020-yil 5-maydagi PF-5989-sonli "To'qimachilik va tikuv trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[7] va boshqa meyoriy-huquqiy hujjalarni keltirish mumkin.

Respublikamiz davlat statistikasining ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning sanoat tarkibidagi ulushu 12,9 foizni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 foizga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 71 121,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.[3,69 bet]. Ushbu hajmlarning yildan-yil o'sishini 1-rasmida ifodalaymiz.






**1-rasm.** O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi, trln. so'mda.

To'qimachilik sanoatida tayyor kiyim ishlab chiqarish sanoatida muhin o'r'in egallaydi. Buning tarkibiga barcha materiallardan tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va x.k.) va aksesuarlarni ishlab chiqarish kiradi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoat tarkibidagi ulushi 7,1 foiz bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 foizni tashkil etib to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi 22478,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi. [3,695 ]


Kiyim ishlab chigарishning oxirgi besh yillikdagi dinamikasi 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm.** Kiyim ishlab chiqarish hajmining dinamikasi trln. so'mda.

Rasmdan ko'rinib turgandek Pandemiyadan keyin sanoati, jumladan, tikuvchilik tarmoqlarida hajm va sifatli ko'rsatkichlari bo'yicha o'sishni kuzatishimiz mumkin. Bular misoliga Namangan viloyatidagi "Ideal" qo'shma korxonasi, Toshkent shahridagi "Realtex Tashkent" korxonasi, "Cotton textile" MCHJ, Buxoroda "Buxoro Zarxal Tekst" MCHJ va boshqalarini keltirishimiz mumkin.

Korxonaning faoliyatı samaradorligini aks etuvchi ko'rsatkichlar tizimini 3-rasmda ko'rishingiz mumkin.





3-rasm. Korxona faoliyatini samaradorligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi.

Ushbu rasmda aks ettirilgan ko'rsatkichlar korxona faoliyatining samaradorligi aks ettirib, ichki va tashqi bozordagi raqobatdoshlik darajasi eksport va import o'rta sidagi taqqoslash valyuta keltirish imkoniyati, yangi mahsulot va texnologiyalarni joriy qilishi holati bilan o'lchanadi. Bularning barchasi korxonaning innovatsion faoliyatining tashkil etilishiga bog'liqdir. Uning samaradorligini aniqlashda amaliyotda mavjud bo'lgan uslubiyotdan foydalandik hamda to'qimachilik korxonalarining xususiyatidan kelib chiqqan holda takomillashtirishga harakat qildik. Masalan, Rossiyalik olim Trifilova A.A o'zining monografiyasida keltirilgan yondashuv bizning tadqiqotlarimizda ham asos bo'ldi [18].

Bunday yondashuvdan foydalangan holda korxonaning innovatsiya faoliyati mavjud imkoniyat va innovatsiya faoliyati mavjud imkoniyat va innovatsiya salohiyatining tarkibiy qismiga uzviy bog'liqligini ko'rib o'tdik.

### **Io=Ire+Ia**

bu yerda **Io** – korxonaning innovatsiya faoliyatida ishtirok etuvchi ichki imkoniyatlari;

**Ire** – (innovative resource of the enterprise) – korxonaning innovatsiya salohiyatini shakillantirishda qatnashuvchi resurslar;

**Ia** – (innovative activity of the enterprise) – korxonaning innovatsiya tadbirkorligi.

Korxonaning innovatsion faoliyatining samaradorligi (Efficiency of innovative activity of the enterprise yoki Eia) – bu o'zaro bog'liq bo'lgan innovatsiya faoliyatining ko'rsatkichlari bo'lib, iqtisodiy kategoriyanı anglatadi.

Amalda ushbu ko'rsatkichlar quyidagi yig'indidan iborat bo'ladi:

### **Eia=Io+Iis=Ic**

bu yerda **Ic** – (innovative climate) – innovatsiya muhiti;

**Iis** – (innovative susceptibility) – innovatsiyaga moyillik, qabul qilishi.

Innovatsiya muhiti deganda tashqi biznes muhitining holati, yangilikka ayniqsa, yashil iqtisodiyot talablariga muvofiq innovatsiya tadbirlariga ta'sir etuvchi turli xil omillar va sharoitlar tushuniladi.

Korxonaning innovatsiya samaradorligi esa uning asosiy miqdori va sifati mazmunini ifoda etuvchi ko'rsatkich hisoblanib, innovatsiya ishlanmalari korxonaning barqarorligi, raqobatdoshligi, foya keltirish imkoniyati va qo'shimcha qiymatlantirish sharoitini ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, korxonaning rivojlanishda innovatsiya resurslaridagi foydalangan holda o'zining tarkibiga quyidagi to'rtta salohiyatni kiritadi:

## **MOLIYAVIY-IQTISODIY SALOHIYAT.**

Korxonaning innovatsiya faoliyatini inobatga olgan holda joriy va kelajakda moliyaviy-iqtisodiy holatini o'zgarishi orqali o'lchanadi. Ko'rsatkichlar tariqasida innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari, to'lovga qobiylatiligi, innovatsiya faolligini, innovatsiya rentabilligi, yangi mahsulot yoki texnologiyadan tushadigan daromad ulushi va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

## **ISHLAB CHIQARISH – TEXNOLOGIK SALOHIYATI.**

Innovatsiya mahsulotini chiqarishning darajasi, innovatsiya tadbirkorlik faoliyati, mahsulotning hayotiy siklining zamon talablariga mosligi bilan o'chanadi.

Bu ko'rsatkich asosiy farqning yosh jihatdan holati, innovatsiya mahsulotini yangilanish koeffitsienti, yangi mahsulot yoki xizmatni sotishdagi ulushi, umumiy sotuv xajmida innovatsiya mahsulotining ulushi va bozor talablariga mosligi bilan tavsiflanadi.

## **ILMIY – TEXNIK SALOHIYATI.**

Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish texnologiyasining drajasini o'zgarishini aniqlab innovatsiya faoliyatida qatnashuv darajasini ko'rsatadi. Ular tarkibiga intelluktual mulk ta'minlanganligi, yangi texnika joriy qilinishi, ilmiy tadqiqotlarni olib borishdagi asosiy vositalarning darajasi va ulushi, texnologik innovatsiyalarga sarflanayotgan mablag', korxonaning kreativlik koeffitsienti kiradi.



## KADRLAR SALOHIYATI

Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan xodimlarga ega bo'lish, ular tomonidan kreativ qarorlar qabul qilish imkoniyati va salohiyati, fan-texnika yutuqlaridan xabardorlik kiradi.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan salohiyatlardan ulushi va kompleks ravishda foydalanaliganidagina korxonning innovatsion faoliyatini rivojlantirish, uni bahoalsh hamda korxonaning barqarorligini ta'minlash imkoniyatiga erishiladi. Albatta, ushbu muammoni hal etilishida oliy o'quv yurtlarida yangicha yondashuvni joriy qiliishi, iqtisodchi, menejer, marketologlar tayyorlanishida injenerlik, texnika, texnologiya o'rgatuvchi fanlarni o'quv standartiga kiritilishi, ilm, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirilishi muxim o'rinn tutadi. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayoni tezlashgan sari, korxonalardagi innovatsiya faoliyati ham o'zgarmoqda, uning oldiga qo'yilgan yondashuvlar ham boshqacha bo'limoqda. Biz o'tkazgan marketing tadqiqotlar aosida ushbu muammolar hamda ularning yechimlarining uslubiyotini o'zgarishi 1-jadvalda keltirilgan[19,20].

**1-jadval. To'qimachilik korxonalarida innovatsiya faoliyatini amalga oshirish muammolari**

Ko'rsatkichlar Solishtirish yillari	2013 yil,% da	2023 yil,% da
Moliyaviy mablag' yetishmasligi	59,6	20,9
Tashqi bozorga chiqish muammosi	80,3	19,7
Yangi mahsulotlarga talab pastiligi	3,2	15,6
Axborot texnologiyalar mavjudligi	15,6	6,7
Malakali xodimlarga talab	3,4	20,3
Marketing tadqiqotlar sifati	2,3	29,8
Yangi texnika, texnologiya va xizmat qiymati	1,8	36,9

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan so'rovnomalari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, oxirgi 10 yil mobaynida to'qimachilik sanoatida nafaqat texnika-texnologiya rivojlandi, balki ishchi xodimlarning dunyoqarashi, iqtisodiy huquqiy ongi ham ancha o'sdi. Agarda oldin moliyaviy mablag' yetishmasligi (59,6%) ro'kach qilinsa, hozirgi kunda xorij yoki ichki investrlarni taklif etish, o'zlarining qimmat baho qog'ozlarini chiqarib ichki va tashqi bozorda sotish imkoniyati mayuddir va hozirgi kunda bunday javoblar 20,6 % ga tushgan. 10 yil oldin marketing tadqiqotlariga deyarli e'tibor bo'limgan bo'lsa, zamon nafasi bilan hozir 29,8 % oshganligi bizga ma'lumdir.

Fikrimizcha, keyingi yillarda mamlakatimizda sanoat korxonalarini tomonidan taklif etilayotgan metodlarga asoslangan holda innovatsion boshqaruv bo'yicha hisobotlarini shakllantirish orqali nafaqat korxonalar, balki, mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanganlik darajasini baholash, shuningdek, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish uchun yetarli darajadagi ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimizda innovatsion rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamin yaratadi.

### Foydalanaligan adabiyotlar:

1. <https://www.reserchandmarket.com/reports/7076579/textile-market-size-share-and-tiends-analysis>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni //<https://lex.uz/uz/does/-6102462>
3. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy holati. 2023-yil yanvar-dekabr. Davlat statistika qo'mitasining to'plami. uz. Stat, 2024-yil.
4. Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldag'i "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni. [lex.uz/docs/-6102462](https://lex.uz/docs/-6102462)
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlanirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. [lex.uz/docs/-5833998](https://lex.uz/docs/-5833998)
2. Respublikasining 2020-yil 5-maydag'i PF-5989-son "To'qimavhilik va tikuv trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. [lex.uz/docs/-4805518](https://lex.uz/docs/-4805518)
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-sentyabrdagi 556-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. [lex.uz/docs/-6217255](https://lex.uz/docs/-6217255)
4. Isayev R.A. To'qimachilik sanoatida sifat menejmenti tizimi asosida strategik boshqarishni takomillashtirish metodologiyasi. DSc dissertatsiyasi aftoreferati. TDIU, 2023-yil.



5. Akramov N.Sh. To'qimachilik korxonalarida strategic boshqarishni takomillashtirish. PhD dissertatsiyasini aftoreferati. TDIU, 2022-yil.
6. Davlatov B.A. Sanoatni rivojlantirishda paxta-to'qimachilik korxonalarini klasretlasgning tashkiliy-iqtisodiy mexanizimini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasini aftoreferati. TDIU, 2023-yil.
7. Oqboyev A.R. tikuv-trikotaj korxonalar raqobatdoshligini boshqarishda brending strategiyasidan foydalanish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. TDIU, 2021-yil.
8. Xakimov Z.A. To'qimachilik klasterlarini shakillantirish metodologiyasini takomillashtirish. DSc dissertatsiyasining avtoreferati. TDIU, 2023-yil.
9. Abdiyeva D.A. Marketing yondashuvlari asosida tikuv - trikotaj korxonalari eksport salohiyatini oshirish. TDIU, 2021-yil.
10. Sadreddinova N.X. To'qimachilik klasterlarining eksport saloxiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. TDIU, 2022-yil
11. Yusupov N.V. Tikuv-trikotaj korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshrish. PhD disserttsiyasi aftoreferati. TDIU, 2021-yil.
12. Yusupov.N.B. To'qimachilik korxonalarini rivojlantirishda raqobat strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. TDIU, 2023-yil.
13. Jo'rabekov M.A. Sanoat korxonalarining innovations-investitsion faoliyati samaradorligini oshrish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. TDIU, 2024-yil
14. Trifilova A.A. Оценка эффективности инновационного развития. 2015-34c
15. Ikromov M.A., Ikramov M.M. к волфам формирования бренда. Namangan muxandis-tehnologik institute xalqaro konferensiya maydonlari. 21.05.2022, 63-70 betlar.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

